

Siyosiy partiya talabalar nigohida

Joriy yilning 16 va 17 fevral kunlari institutimizning B -222 o'quv xonasida 5630101-Ekologiya va AMM (suv xo'jaligida) ta'lif yo'nalishi 1-bosqich talabalari uchun "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedrasini professor-o'qituvchilari R.Razzakov va Sh.Shoergashovalar tomonidan "Atrof-muhit va jamoat salomatligini tiklash hamda oliy ta'lif muassasalarida usluksiz ekologik ta'lif tizimini joriy etishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta'minlash" mavzusida tadbir o'tkazildi. Tadbirda Toshkent viloyati partiya tashkiloti bosh mutaxasislari X.Sa'dullaev, N.Ibragimova, O'zbekiston Respublikasi innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi Toshkent viloyati hududiy bo'linmasi direktor o'rinnbosari S. Daniyarovalar mehmon sifatida ishtirok etdilar.



Tadbirdan ko'zlangan maqsad partiya tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ishlar, yurtimizning ertangi porloq kelajagining davomchilari bo'lgan yoshlarmizni qo'llab-quvvatlash, ularni bandligini ta'minlash, tabiatga mehr uyg'otish, hamda ta'lifning barcha yo'nalishlarida usluksiz ekologik ta'lif tizimini joriy etishga qaratildi. Bundan tashqari xar bir insonda o'zi yashab turgan uy, ko'cha, mahalla, qishloq va shaharni tabiiy holatini asrab avaylash, uni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, tabiiy maskanlarni asl holida saqlash va ulardan unumli foydalanish, yurtimiz tabiatini muhofaza qilish singari fazilatlarni shakllantirish ekologik tarbiyaning ajralmas qismi ekanligi tushuntirildi.

TIQXMMI matbuot xizmati